

## TARIX FANINI O'RGANISHDA METOD VA METODOLOGIYA.

Salaydinov Marufjon Maxamadjonovich

*Muhammad al Xorazmiy nomli TATU FF akademik litseyi*

**Annotatsiya:** *Tarixni yoritishda metod va metodologiyani ishlab chiqmasdan turib rivojlantirishning iloji yo'q. Uzoq vaqtlar mobaynida biz tarixni faqat markscha lenincha metodologiya asosida o'rgandik. Holbuki dunyo fani tarixni yoritishda 100 dan ortiq metodlardan foydalanadi. Bularga sivilizasion mental mantiqiy deduksion yozma va boshqa metodlarni aytish mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *metod, tarix, o'tmish voqealar, manbashunos, voqelik.*

Tarixchilik o'ta mas'uliyatli kasbdir. Tarixni muayyan ijtimoiy, siyosiy manfaatlar talablariga bo'ysindirishga qaratilgan har qanday urinish bu fan oldidagi ob'yektivlik talabiga ziddir. Chunki o'tmish tarixchi ixtiyoridan tashqaridagi, biroq, to'g'ri tushunilishiva tushuntirilishi lozim bo'lgan ob'yektivlikdir. Bu o'rinda tarixchi o'tmish voqealar karvonining oxirida borayotgan sayyoxdek. Karvon boshidagi, o'rtasidagi voqealor uning uchun ko'rish imkoniyatidan tashqari va mutlaqo xolis haqiqatdir. Voqealarning kelib chiqish shart-sharoitlarini, sabablarini, ularning kechish jarayonlarini, oqibatlarini, keyingi voqealarga ta'sirini, bu tizimni bog'lab turuvchi qonuniyatlarni ochib berish tarixchidan chuqur va atroflicha bilim, manbalar bilan ishlash ko'nikmalarini talab qiladi. Tarixchi, ayniqsa manbashunos tarixchi uzoq va yaqin o'tmishni undan qolganmoddiy, yozma va og'zaki manbalar asosida haqqoniy tavsif, tahlil va talqin qilishga mas'uldir. Shu bilan barobar tarixchi o'zi foydalanayotgan manbaning voqelikga munosabatini ham to'g'ri baholashi lozim. Chunki, turli davr manbalarida manfaatlar ziddiyati tabiiy holdir. Tarixiy jarayon esa ob'yektiv bo'lib, unga munosabatlardagi sub'yektialiklardan ustun, barqaror o'zgarmasdir. Tarix fani taraqqiyotida metod va metodologiya muammolari doimiy ravishda olimlar diqqatida bo'lib kelgan. Qadimgi yunon-rim tarixchilari "ko'rganlik va eshitganlik" bo'yicha ma'lumotlar bayonini berganlar. Qadimgi turkiy xalqlar "tarixchiligi" da o'tmishni ibrat qilib ko'rsatish va xatolarni takrorlamaslik g'oyasi singdirilgan (Bilga xoqon, kultegin yodnomalari). Islom davri tarixchiligida Odamatodan muallifgacha tarixni berish tamoyili kuchaygan. Metodologik yangi yo'nalishi "Xvadaynomak", "Shohnoma", "Tarix ar-rusul va al-hukamo" tipidagi o'rta asr manbalarida davom etdi. Xususan, "Shoxnoma", "Tarixi muluki Ajam" (A.Navoiy) kabi asarlar uchun Sharq tarixida kayyoniyalar, peshdodiylar, ashkoniylar, sosoniylar kabi to'rt sulolaviy xronologiya amal qildi. Ammo bu tarixlar real tarixni roviy, hatto asotriy tarixiy tafakkurdan ajratmagan. Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" da geneologik ildiz masalasi an'anaviy, odam alayxissalomdan boshlanib, turk-mug'ul an'anasini aks ettirdi. Abulg'oziy Baxodirxonning "Shajarai Turk" asari ham shu ruhda tuzilgan.

Personal (ayrim shaxs) faoliyat tarixlaridan boshlab tarix tafakkurida roviy tarix bilan hayotiy (real) tarix ajratila boshlagan.

G'arb tarixchiligida Avgustin (mil. 354-430 yy.) o'zining "Ilohiy davlat" ("De civitate dei") asarida samoviy podsholik va yerdagi podsholik g'oyasini qarama-qarshi qo'ydi. Tarixda dualizm oqami shundan boshlanadi. Uning fikricha barcha tarixiy jarayon yerdagi shaytoniy davlat vaqti kelib tugagach, samoviy, ilohiy podsholik davri boshlanadi. Yerdagi shaytoniy davlat Odamatoning ikki o'g'lidan biri Qobul tomonidan xotilning o'ldirilishidan boshlangan. Qobul yerda ulkan "qaroqchilar davlatini (makonini)" boshlab bergan. Bu o'z intihosiga yetadi. Rimning qulashi bilan bu "makon" ning tugashi boshlangan. Endilikda esa Vizantiya timsolida (Konstantin qirolligi) ilohiy samoviy davlatning paydo bo'lishi uchun ilk darakchidir deb uqtiradi Avgustin.

Sharq tarix tafakkurida ham sulolalar tarixi misolida so'nggi podsholik adolatli va xudoga maktub davlat sifatida ko'rsatish an'anasi bor va buni maxsus tadqiq etilishi lozim.

G'arbda Klavdiy Ptolemey tarixni geografik talqin qilish an'anasining asoschilaridan biri davlat tarixini turk xronologik bosqichga bo'lgan: Assiro-Vavilon, Midiya-Fors, Yunon-Makedon va Rim bosqichlari. Bu yuqorida keltirilgan sharqona "To'rt bosqich" an'anasidagi asotir va tarix qorishmasidan ko'ra tarixan haqiqiy bosqichlar edi. Biroq, Rim imperiyasini bu qarash yerdagi oxirgi davlat, deb ko'rsatadi. Shu bilan birga to'rtala bosqich xudoning irodasi bilan ro'y bergan va u bosqichlar insoniyatning siyosiy birlashuviga xizmat qilgan. Endilikda insoniyat, emishki, Vizantiya boshchiligida ilohiy davlat atrofida birlashar emish. XII asrda yashagan tarixchi Otton Freyzingen Rim imperiyasi odamzodning xristian dini atrofida birlashuvi uchun zamin hozirlagan, deya xulosa chiqargan edi. ("Xronika ot sotvoreniya mira" nomli kitobda). Go'yo, Xudo Rimga qudrat berib, uning imperatori shaxsida odamlarni itoatga o'rgatgan va oqibatda xudodan ham qo'rqadigan itoatli bo'lishga o'rgatgan.

G'arb tarix tafakkuri taraqqiyotida Avgustin va uning izdoshlari "To'rt xronologik bosqich" nazariyasini XVI-XVII asrlargacha davom ettirdilar. G'arb gumanistik tarixchilik hamda erudit tarixshunoslik maktablarida ham mazkur qarash ta'siri kuzatiladi.

Sharqda Ibn Xoldunning tarix nazariyasi ijtimoiy tarix oqimining boshida turadi. G'arbda Ibn Xoldun qarashlari - tarixga ijtimoiy hodisa sifatida qarash oqimining paydo bo'lishiga olib keldi. Viko, Tyurgo, Fergyusan, Kandors, Kont, Spenser kabi olimlar ushbu oqim vakillari edi.

Nisoviy, Ibn Arabshoh kabi sharq tarixchilari tarixga fatalistik (taqdirda yozilgan hodisa sifatida qarash) ni yetakchi o'ringa qo'yidilar. Masalan, Sulton Jaloliddin Mangburni yoki Amir Temur qanchalik qudratli salohiyatga ega bo'lmasinlar, taqdiri azal hukmidan chiqolmaydilar, qadimda talqin qilinadi.

Tarixchi go'yo voqealar karvoni oxirida borayotgan sayyoxdek. Karvon boshidagi voqealarni u ko'rmaydi. Nima bo'lyapti? - degan savolga o'rta va oxir qatorlar turlicha javob beradi. Masala shundaki, tarixchi karvon boshidagi voqealarning aniq manzarasini ularning sabablari va oqibatlarini to'g'ri talqin qilishga qodir bo'lmog'i lozim.

Metodologiya tarix tadqiqotlarining bosh maqsadini belgilab beruvchi nazariy asosidir. Buni tarix tadqiqotlarining strategiyasi deb baholash mumkin.

Tarix fanining maqsadi voqea-hodisalarning sabab va oqibat munosabatlarini, ularni bog'lab turuvchi bo'g'ini orqali, uning turli-tuman ko'rinishlarida qonuniyatlar umumiyliigi va xosligi orqali tushuntirib berish, zarur hulosalar chiqarish orqali jarayonlarning borishi va istiqboliga pozitiv (ijobiy) ta'sir o'tkazishdan iborat. Tarixning ibрати ayni shundadir. Ya'ni, tarix tarixiy xatolarni takrorlamaslik, bugungi kun va kelajak uchun to'g'ri yo'l belgilash uchundir.

Tarix tadqiqotlarining metodologik, g'oyaviy-nazariy asosini doimiy ravishda muayyan jamiyat, undagi yetakchi ijtimoiy kuchlarning manfaatlari belgilab kelgan. Shu tufayli tarix fani siyosat bilan, ijtimoiy tuzulma yoki xarakat, davlat tuzulmasi va boshqalarning yetakchi konseptual maqsadlariga xizmat qilib keladi. Bu hol tarix tadqiqotlarining davrlar o'tgach, yangi yangi manfaatlar nuqtai nazaridan qayta baholash ehtiyojini paydo qiladi. Abu Rayxon Beruniy ana shu sulola milodiy 995 yilga qadar 22 avlod podsholik taxtida turganligini ta'kidlaydi; Sug'd podsholarining unvoni ixshid atamasi ham hokimiyatning ilohiyligiga ishorat qiladi. Ya'ni, ixshidlik martabasi ilohiy nurga loyiq bo'lgan zotga keladi, deyilgan. Zero ixshid avestacha xshayati so'zining sug'dcha talaffuz shakli bo'lib "nurli, ilohiy nur sohibi" demakdir.

Hokimiyat konsepsiyasining xoqonlik va xonlik tizimlari ham ilohiylik da'vosiga asoslangan.

Islom davrida Markaziy Osiyo davlatchilik tarixida xalifalik va amirlik tizimlari paydo bo'lgan. Xalifalik payg'ambardan keyingi xokimiyat davomchilariga

nisbatan amal qilgan. Amirlik esa xalifalik tomonidan beriladigan go'yo noiblik, ya'ni amr qilish, buyurish huquqi demakdir. Bu martaba saltanatni boshqarishda Amir Temur hamda Buxoro amirligi amaliyotida yaqqol ko'ringan. Shu orada xonlik martabasi Chingizxondan keyin u bilan genetik aloqadorlik da'vosi asosida shayboniyxon va uning avlodlarida hamda Ashtarxoniylarda davom etdi.

Buxoroda mang'itlar sulolasi genetik jihatdan xonlik tomiriga bog'liq bo'lmagani uchun amirlik maqomini konseptual asos qilib olgan. Bu tizim Buxoroda Amir Olimxongacha davom etdi.

Qo'qon xonligi "oltin beshik" rivoyati orqali o'zini Bobur bilan bog'ladi va ona tomonidan Boburning Chingizxon avlodlariga aloqadorligiga tayandi.

Hulosa qilib aytilsa, tarix yaratishda metodologik zamin bo'lib, o'tmishda mazkur sulolalarning hokimiyatida munosabati ularning hukmronligini qonuniy qilib ko'rsatish manfaatidan kelib chiqqan.

Metodologiya va metodika (Uslubiyat va tadqiqot usullari) o'rtasida uzviy aloqadorlik masalasi muhim omildir. Tadqiqot usullari uslubiyatni, ya'ni tadqiqotning g'oyaviy-nazariy asoslarini ta'minlashga xizmat qilmog'i lozimdir. Metodologiya va metodika dialektik birlikni tashkil etadi.